



#SF

NOGIRONLIGI BO'IGAN SHAXSLARNING MADANIY SOHALAR OBYEKTлари VA XIZMATLARIDAN FOYDALANISH HUQUQLARI

1 Boymurodov Saparbek Ro'ziboyevich

2 Asatullayev Alijon Maratovich

3 Mahmudov Komronbek Muhammad o'g'li

ABSTRACT

Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy soha obyektlari va xizmatlaridan foydalanish huquqlarining huquqiy asoslari, mazkur huquqlarning xalqaro va milliy qonunchilikdagi kafolatlari hamda amaliyotdagi dolzarb muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, madaniyat muassasalarida inklyuziv muhitni yaratish, jismoniy va axborot jihatdan qulayliklarni ta'minlash, nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotda teng va faol ishtirok etishini ta'minlash masalalari yoritiladi.

KEYWORDS

Nogironligi bo'lgan shaxslar

madaniy huquqlar

madaniy xizmatlar

inklyuzivlik

teng imkoniyatlar

huquqiy kafolatlarni

KIRISH

Inson huquqlarini ta'minlash zamonaviy huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Har bir shaxs jamiyat hayotining turli sohalarida teng ishtirok etish va o'z huquqlaridan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Shu jihatdan madaniy huquqlar ham insonning muhim huquqlaridan biri hisoblanadi. Madaniy hayotda ishtirok etish shaxsga madaniy boyliklardan foydalanish, madaniy tadbirlarda qatnashish hamda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini beradi. Bugungi kunda barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini ta'minlash muhim o'rin egallaydi. Nogironligi bo'lgan shaxslar ham boshqa fuqarolar kabi madaniy hayotda ishtirok etish, madaniyat muassasalari xizmatlaridan foydalanish va turli madaniy tadbirlarda qatnashish huquqiga ega. Ushbu huquqlarning amalda ta'minlanishi ularning jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi. Madaniy soha obyektlari va xizmatlaridan foydalanish imkoniyati barcha shaxslar uchun bir xil bo'lishi kerak. Buning uchun madaniyat muassasalari, axborot resurslari va madaniy tadbirlar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ham qulay va ochiq bo'lishi muhim hisoblanadi. Aks holda, ularning madaniy hayotda ishtirok etish imkoniyatlari cheklanib qolishi mumkin. Shu sababli nogironligi bo'lgan shaxslarning

madaniy soha obyektlari va xizmatlaridan foydalanish huquqini ta'minlash masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Mazkur huquqning samarali ta'minlanishi ularning jamiyat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng asosda ishtirok etishiga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM. Nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan foydalanish huquqi xalqaro huquqda tan olingan muhim huquqlardan biri hisoblanadi. Ushbu huquqning asosiy mazmuni nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotda boshqa shaxslar bilan teng

ravishda ishtirok etishi, madaniy obyektlar va xizmatlardan foydalanishi hamda madaniy tadbirlarda qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishidan iborat. Mazkur huquqning huquqiy asoslari bir qator xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan.

Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 27-moddasida har bir insonning jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etish, san'at yutuqlaridan bahramand bo'lish hamda ilmiy taraqqiyot natijalaridan foydalanish huquqi belgilangan. Ushbu norma insonning madaniy huquqlarini e'tirof etuvchi asosiy xalqaro qoidalardan biri hisoblanadi. Mazkur modda madaniy huquqlardan foydalanish imkoniyati faqat ayrim shaxslar uchun emas, balki jamiyatning barcha a'zolari uchun teng bo'lishi lozimligini nazarda tutadi. Shu jihatdan mazkur qoida nogironligi bo'lgan shaxslarning ham madaniy hayotda boshqa fuqarolar bilan bir xil huquqlarga ega ekanligini ifodalaydi. Ularning san'at, adabiyot, madaniy meros va boshqa madaniy boyliklardan foydalanish huquqi mazkur modda orqali xalqaro darajada tan olingan. Shuningdek, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 15-moddasida har bir insonning madaniy hayotda ishtirok etish huquqi tan olingan. Mazkur modda nafaqat madaniy hayotda ishtirok etish huquqini belgilaydi, balki davlatlarning ushbu huquqni amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratish majburiyatini ham nazarda tutadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan maxsus xalqaro hujjat sifatida "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiya alohida ahamiyatga ega. Konvensiyaning 30-moddasida nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotda boshqa shaxslar bilan teng asosda ishtirok etish huquqi mustahkamlangan. Mazkur modda davlatlarning nogironligi bo'lgan shaxslar uchun madaniy hayotdan foydalanish imkoniyatini yaratish bo'yicha choralar ko'rishini nazarda tutadi. Shuningdek, televizion dasturlar, filmlar, teatr tomoshalari va boshqa madaniy tadbirlarning ular uchun qulay shakllarda taqdim etilishi zarurligi qayd etilgan.

Bundan tashqari, mazkur moddada nogironligi bo'lgan shaxslarning teatrlar, muzeylar, kutubxonalar, kinoteatrlar, turizm obyektlari va boshqa madaniy muassasalardan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, imkon qadar tarixiy yodgorliklar va madaniy meros obyektlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratish ham davlatlarning vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Konvensiya nogironligi bo'lgan shaxslarni faqat madaniy xizmatlarning iste'molchisi sifatida emas, balki madaniy hayotning faol ishtirokchisi sifatida ham e'tirof etadi. Shu sababli moddada ularning ijodiy, badiiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash zarurligi alohida ta'kidlangan.

Konvensiyaning 30-moddasida nogironligi bo'lgan shaxslarning o'z madaniy va lingvistik xususiyatlarini saqlash huquqi ham ko'rsatilgan. Xususan, imo-ishora tillari va karlar madaniyatini tan olish hamda qo'llab-quvvatlash masalalari mazkur moddaning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, moddada nogironligi bo'lgan shaxslarning dam olish, hordiq chiqarish va sport faoliyatida boshqa fuqarolar bilan teng asosda ishtirok etishini ta'minlash zarurligi qayd etilgan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan xalqaro-huquqiy hujjatlar nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy huquqlarini ta'minlashning asosiy huquqiy asoslarini belgilab beradi. Ushbu hujjatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotda ishtirok etishi, madaniy obyektlar va xizmatlardan foydalanishi hamda madaniy faoliyat bilan shug'ullanishi boshqa fuqarolar bilan teng huquqlar asosida amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlangan.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda teng ishtirok etishini ta'minlash masalasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi darajasida mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyaning 57-moddasid davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari hamda xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi belgilangan. Mazkur norma nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotiga faol integratsiyalashuvini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularning ta'lim olish, mehnat qilish, axborotdan erkin foydalanish hamda boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lish huquqlarini kafolatlaydi. Ushbu konstitutsiyaviy qoida davlat zimmasiga nafaqat nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini e'tirof etish, balki ularni amalda ro'yobga chiqarish uchun zarur mexanizmlarni yaratish majburiyatini ham yuklaydi. Ayniqsa, zarur axborotni to'siqlarsiz olish imkoniyatining kafolatlanishi nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotda, ta'lim jarayonlarida va ijtimoiy munosabatlarda to'laqonli ishtirok etishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, Konstitutsiyaning 57-moddasi nogironligi bo'lgan shaxslar uchun teng imkoniyatlar va inklyuziv muhitni ta'minlashning muhim huquqiy asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotida teng va faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Qonunda nogironligi bo'lgan shaxslar alohida g'amxo'rlikka muhtoj qatlam sifatida emas, balki barcha huquq va erkinliklarga ega bo'lgan teng huquqli fuqarolar sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, ularning ta'lim olish, mehnat qilish, madaniy hayotda ishtirok etish hamda axborot va xizmatlardan erkin foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur yondashuv nogironligi bo'lgan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, ularning mustaqil hayot kechirishi hamda jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada qonun ijtimoiy tenglik va inklyuzivlik tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda muhim o'rin egallaydi.

Shuningdek, ushbu muammoni o'rgangan tadqiqotchilardan biri, Hisayo Katsui nogironligi bo'lgan shaxslarning lingvistik va madaniy huquqlarini o'rganar ekan, madaniy hayotda ishtirok etish faqatgina madaniy obyektlarga kirish yoki

xizmatlardan foydalanish bilan cheklanmasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu huquq nogironligi bo'lgan shaxslarning o'z madaniyatini erkin ifoda etishi, o'z qadriyatlarini namoyon qilishi va jamiyatda boshqalar bilan teng ravishda ishtirok etishi bilan bog'liqdir. Olimning qayd etishicha, agar bunday shaxslar o'z fikrlarini til, aloqa vositalari yoki boshqa kommunikatsiya usullari orqali erkin ifoda eta olmasa, ular madaniy hayotdan chetda qolishi va jamiyatdan ajralib qolishi mumkin. Shu sababli Hisayo Katsui nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini qonunchilikda tan olish bilan birga, ular uchun moslashtirilgan axborot, xizmatlar va qulay kommunikatsiya vositalarini yaratish muhim ekanligini alohida ta'kidlaydi. Bu fikrlar nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotda ishtirok etish huquqi faqat madaniy obyektlardan foydalanish bilangina emas, balki o'zini namoyon etish va jamiyat hayotiga to'laqonli qo'shilish imkoniyati bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Mazkur fikrlar nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy huquqlarini ta'minlashda qulay muhit va samarali kommunikatsiya vositalarini yaratish muhim ekanligini ko'rsatadi. Zero, madaniy hayotda ishtirok etish imkoniyati ularning jamiyatda teng va munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

M.S. Sayari madaniyat muassasalarida inklyuzivlik faqat nogironligi bo'lgan shaxslar uchun binolarga kirish imkoniyatini yaratish bilan cheklanmasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, madaniy xizmatlar ham turli nogironlik turlariga ega bo'lgan shaxslarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Olim madaniy vositachilik yondashuviga alohida e'tibor qaratib, bu usul nogironligi bo'lgan shaxslarning muzeylar, teatrlar, kutubxonalar va boshqa madaniyat maskanlari faoliyatida faol qatnashishiga yordam berishini qayd etadi. Shuningdek, u inklyuziv muhitni shakllantirish uchun universal dizayn tamoyillaridan foydalanish, xodimlarni muntazam tayyorlab borish va jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish muhimligini ta'kidlaydi. M.S. Sayarining fikricha, inklyuzivlikni ta'minlash faqat panduslar, keng eshiklar yoki audio qo'llanmalar kabi texnik qulayliklarni yaratish bilangina cheklanib qolmasligi kerak. Eng muhimi, jamiyatda har bir insonning madaniy hayotda teng va faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdir⁷, -deb hisoblaydi.

A.Leahy va D.Ferri o'zlarining tadqiqotida nogironligi bo'lgan odamlarning madaniyatga kirishida bir qancha to'sqinliklar mavjudligini aniqlashadi. Ularning fikricha, madaniyat obyektlari va xizmatlaridan foydalanganida nogiron shaxslar quyidagi asosiy to'siqlarga duch keladi: samarali qonunlar va siyosatning yetishmasligi, xizmatlar yoki moliyalashtirishning yetarli emasligi, salbiy munosabatlar, kirishning pastligi va nogiron shaxslarni madaniyat tashkilotlarida keng jalb etish yo'qligi. A.Leahy va D.Ferri bu muammolarni bartaraf etish uchun qonunchilikni kuchaytirish, siyosatni amalga oshirishni yaxshilash va madaniyat tashkilotlarida

nogironlar ehtiyojlarini hisobga olgan siyosatlarini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi⁸. Bu yondashuv madaniyatga kirish huquqini nafaqat fizik infrastrukturaga bog'lamay, balki inkluziv siyosat va amaliyotlar orqali ta'minlashga yordam beradi.

Keltirilgan fikrlardan ko'rinadiki, nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotda to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash uchun faqatgina qulay infratuzilma yaratishning o'zi yetarli emas. Buning uchun ularning ehtiyoj va manfaatlarini hisobga oluvchi samarali qonunchilik, amaliy mexanizmlar hamda inkluziv siyosatni izchil amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, madaniyat muassasalarida nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, ularni turli madaniy tadbir va loyihalarga faol jalb etish ham zarur hisoblanadi. Chunki madaniy hayotda teng ishtirok etish imkoniyati nafaqat ularning madaniy huquqlaridan samarali foydalanishiga xizmat qiladi, balki jamiyatga integratsiyalashuvi va ijtimoiy faolligining oshishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Rossiya tajribasini o'rganish jarayonidan ma'lumki, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash yo'lida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsa-da, amaliyotda hali ham qator muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatdi. Xususan, 2014-yilda Sochi shahrida Qishki Paralimpiya o'yinlarining o'tkazilishi nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat hayotiga kengroq jalb etish va ular uchun qulay muhit yaratish borasidagi muhim tashabbuslardan biri bo'ldi. O'yinlarga tayyorgarlik jarayonida sport inshootlari, tomoshabinlar zonalari va boshqa obyektlarning moslashtirilgani nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlarini inobatga olish amaliy jihatdan ham muhim natijalar berishini namoyon etdi.

Biroq tahlillar Rossiyada nogironligi bo'lgan ko'plab shaxslar kundalik hayotda jiddiy to'siqlarga duch kelayotganligini ham ko'rsatdi. Jumladan, ta'lim olish, ishga joylashish, tibbiy xizmatlardan foydalanish, madaniy tadbirlarda ishtirok etish hamda ijtimoiy hayotda faol qatnashish jarayonlarida turli muammolar mavjudligi aniqlandi. Ushbu muammolar nafaqat jismoniy infratuzilmaning yetarli darajada moslashtirilmaganligi, balki jamiyatda saqlanib qolayotgan salbiy munosabatlar va stereotiplar bilan ham bog'liq ekanligi kuzatildi. Ayniqsa, transport tizimidagi mavjud cheklovlar nogironligi bo'lgan shaxslarning mustaqil harakatlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklashi ma'lum bo'ldi. Transport vositalari va bekatlarning yetarlicha moslashtirilmagani, qulay transport xizmatlarining kamligi hamda ular haqidagi ma'lumotlarning yetarli emasligi natijasida ko'plab shaxslarning muzeylar, teatrlar, bog'lar va boshqa madaniy obyektlardan foydalanish imkoniyatlari cheklanmoqda. Bu esa nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotda to'laqonli ishtirok etishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning jamiyatdan ajralib qolish xavfini oshirmoqda.

O'rganilgan holatlar shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy huquqlarini ta'minlash uchun faqat alohida tadbirlar yoki infratuzilmani moslashtirishning o'zi yetarli emas. Ushbu yo'nalishda transport, ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat sohalarida

o‘zaro bog‘liq hamda izchil choralarni amalga oshirish zarur. Chunki nogironligi bo‘lgan shaxslarning madaniy hayotdagi ishtiroki ularning boshqa ijtimoiy huquqlardan foydalanish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hayotning turli sohalarida bir qator to‘siqlarga duch keladilar. Ushbu to‘siqlar jismoniy, siyosiy, dasturiy va ijtimoiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Jismoniy to‘siqlar insonning erkin harakatlanishi yoki biror joyga kirishini qiyinlashtiradigan omillardir. Masalan, binolarda panduslarning yo‘qligi, kirish qismidagi zinapoyalar, tor yo‘laklar yoki zarur jihozlarning mavjud emasligi nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun jiddiy noqulaylik tug‘diradi. Natijada ular ayrim xizmatlardan boshqalar bilan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo‘la olmaydi.

Siyosiy to‘siqlar esa amaldagi qonun va qoidalarning to‘liq bajarilmasligi yoki ular haqida yetarli ma’lumot mavjud emasligi bilan bog‘liq. Bunday holatlarda nogironligi bo‘lgan shaxslar turli davlat dasturlari, xizmatlar va imtiyozlardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ayrim hollarda ish beruvchilar tomonidan ular uchun mos mehnat sharoitlari yaratilmasligi ham ushbu muammoning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Dasturiy to‘siqlar sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlar faoliyatida uchraydi. Masalan, tibbiy muassasalarda qabul vaqtlari qulay tashkil etilmagan bo‘lishi, kerakli uskunalarning yetishmasligi, shifokorlar tomonidan bemorlarga yetarli vaqt ajratilmasligi yoki xodimlarning nogironlik masalalari bo‘yicha bilimlari kamligi xizmatlardan samarali foydalanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa nogironligi bo‘lgan shaxslarning sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlarini cheklaydi.

Ijtimoiy to‘siqlar esa ta’lim, bandlik va daromad olish kabi muhim sohalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ko‘plab mamlakatlarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning ish bilan ta’minlanish va ta’lim olish darajasi nogironligi bo‘lmagan shaxslarga qaraganda pastroqdir. Masalan, 2017-yilda 18 yoshdan 64 yoshgacha bo‘lgan nogironlarning atigi 35,5 foizi ish bilan ta’minlangan bo‘lsa, nogironligi bo‘lmagan

shaxslar orasida bu ko‘rsatkich 76,5 foizni tashkil etgan. Ushbu raqamlar nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat bozorida hali ham ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko‘rsatadi. Shu sababli jamiyatda mavjud to‘siqlarni bartaraf etish va barcha uchun teng imkoniyatlarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, 18 yosh va undan katta yoshdagi nogironligi bo‘lgan shaxslarning o‘rta maktabni bitirish ko‘rsatkichi nogironligi bo‘lmagan tengqurlariga qaraganda pastroq ekanligi qayd etiladi. Jumladan, ushbu ko‘rsatkich nogironligi bo‘lgan shaxslar orasida 22,3 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, nogironligi bo‘lmagan shaxslar orasida 10,1 foizni tashkil etadi. Daromad darajasida ham sezilarli farqlar mavjud. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning yillik daromadi 15 000 AQSh dollaridan kam bo‘lish ehtimoli yuqoriroq bo‘lib, bu ko‘rsatkich 22,3 foizga teng. Nogironligi bo‘lmagan aholi o‘rtasida esa mazkur ko‘rsatkich 7,3 foizni tashkil qiladi. Bu esa

nogironligi bo'lgan shaxslarning iqtisodiy imkoniyatlari ko'pincha cheklanganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, nogironligi bo'lgan bolalar turli shakldagi zo'ravonliklarga duchor bo'lish xavfi yuqori bo'lgan ijtimoiy guruhlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ularning zo'ravonlik qurboniga aylanish ehtimoli nogironligi bo'lmagan bolalarga nisbatan qariyb to'rt baravar ko'proq ekanligini ko'rsatadi. Oqibatda nogironligi bo'lgan shaxslar ta'lim olish, munosib mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, barqaror daromad topish hamda ijtimoiy himoya tizimlaridan foydalanishda turli qiyinchiliklarga duch keladilar¹⁰.

Muhim muammolardan yana biri transport tizimi bilan bog'liq cheklovlaridir. Transport infratuzilmasining nogironligi bo'lgan shaxslar ehtiyojlariga to'liq moslashtirilmaganligi ularning erkin harakatlanish imkoniyatlarini pasaytiradi. Xususan, moslashtirilgan transport vositalarining kamligi, jamoat transporti xizmatlarining qulay emasligi yoki ularning yashash hududlariga nisbatan noqulay joylashuvi nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy hayotda faol qatnashishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois nogironligi bo'lgan insonlarning o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishi hamda jamiyat hayotida mustaqil va teng huquqli ishtirok etishini ta'minlash maqsadida jismoniy, siyosiy, dasturiy, ijtimoiy va transport sohalarida mavjud bo'lgan barcha to'siqlarni bartaraf etish alohida ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda jahon miqyosida nogironligi bo'lgan shaxslarning

10 foizidan kamrog'i oliy ta'lim olish imkoniyatiga ega. Lotin Amerikasi mamlakatlarida esa ushbu ko'rsatkich 2 foizdan 5 foizgacha bo'lgan diapazonda o'zgarib turadi. Yevropa Ittifoqida nogironligi bo'lgan fuqarolarning atigi 24 foizi oliy ma'lumotga ega bo'lsa, nogironligi bo'lmagan aholida bu ko'rsatkich 36 foizni tashkil etadi. Hindistonda esa nogironligi bo'lgan talabalar oliy ta'lim muassasalaridagi umumiy talabalar sonining bor-yo'g'i 0,63 foizini tashkil qiladi. Isroilda ham nogironligi bo'lgan talabalarning oliy ta'lim tizimidagi ulushi yetarli darajada emas. Ular jami talabalar sonining atigi 1-3 foizini tashkil etgan bo'lsa-da, mamlakat aholisining qariyb 17 foizi nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat. Kolumbiyada esa oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida nogironligi bo'lgan shaxslar ulushi 0,58 foizga teng bo'lib, bu esa taxminan 10 500 nafar talabani tashkil etadi. Kolumbiyada nogironligi bo'lgan talabalarni oliy ta'lim tizimiga kengroq jalb etish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qo'llab-quvvatlanayotgan bo'lsa-da, amaliy ko'rsatkichlar hali ham kutilgan natijaga erishmagan. Milliy ta'lim vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar va tashabbuslarga qaramasdan, ushbu sohada qator muammolar saqlanib qolmoqda. Boshqa mamlakatlar tajribasi bilan taqqoslanganda ham Kolumbiyada inklyuziv ta'limni rivojlantirish sur'atlari nisbatan sust ekanligi kuzatiladi. Masalan, Qo'shma Shtatlar universitetlari nogironligi bo'lgan talabalarni qamrab olish darajasi bo'yicha dunyodagi ilg'or oliy ta'lim tizimlaridan biri sanaladi. Fransiyada esa nogiron talabalar ulushi nisbatan past bo'lishiga qaramay, ularning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy va institutsional mexanizmlar yaxshi rivojlangan. Xususan, Ta'lim vazirligi tomonidan moliyalashtiriladigan maxsus yordam xizmatlari, talabalar uchun akademik jarayonni yengillashtiruvchi dasturlar hamda ularning

harakatchanligi va keyinchalik bandligini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Shu bilan bir qatorda, Kolumbiya, Boliviya va Chili kabi davlatlarda inklyuziv siyosatlarning amaliy natijalari bir xil darajada namoyon bo'lmayapti. Kolumbiyada inklyuziv ta'lim sohasidagi ilmiy izlanishlar va samarali siyosatlarning yetarli darajada shakllanmaganligi nogiron talabalarning oliy ta'limga kirish imkoniyatlarini cheklashiga hamda ta'lim jarayonida uchraydigan to'siqlarning ko'payishiga olib kelmoqda. Boliviya oliy ta'limning bepul taqdim etilishi an'anasi mavjud bo'lsa-da, infratuzilmadagi kamchiliklar va moddiy resurslar tanqisligi asosiy muammolar sifatida saqlanib qolmoqda. Chilida esa ayrim oliy ta'lim muassasalarida nogiron talabalar uchun soddalashtirilgan qabul tartiblari va qo'llab-quvvatlash xizmatlari joriy etilgan bo'lsa-da, ularning amaliy qo'llanilishi hamda samaradorligi barcha universitetlarda bir xil darajada ta'minlanmagan.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar va xalqaro tajribalar nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim, bandlik, ijtimoiy himoya hamda jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishi yo'lida hanuzgacha turli to'siqlar mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, oliy ta'limga kirish va uni muvaffaqiyatli yakunlash ko'rsatkichlarining pastligi ushbu sohada inklyuziv yondashuvni yanada kuchaytirish zarurligini tasdiqlaydi. Turli davlatlar misolida kuzatilayotgan natijalar nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish imkoniyatlari ko'p jihatdan davlat siyosati, mavjud infratuzilma, qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda ijtimoiy munosabatlarga bog'liqligini namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar va o'rganilgan manbalar asosida aniqlangan asosiy natijalar hamda ularning amaliy ahamiyatini tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot davomida tahlil qilingan ma'lumotlar nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy soha obyektlari va xizmatlaridan foydalanish huquqi xalqaro

hamjamiyat tomonidan keng e'tirof etilgan bo'lsa-da, ushbu huquqni amaliyotda ta'minlash bilan bog'liq muammolar hanuzgacha saqlanib qolayotganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, ta'lim, bandlik va iqtisodiy imkoniyatlar bilan bog'liq ko'rsatkichlar nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganini namoyon etadi. Oliy ta'lim olish imkoniyatlarining cheklanganligi, daromad darajasining pastligi hamda transport va axborot infratuzilmasidagi mavjud muammolar ko'pincha madaniy hayotda faol qatnashish imkoniyatlarini ham pasaytiradi. Shu sababli madaniy huquqlar masalasini boshqa ijtimoiy va iqtisodiy huquqlardan ajratgan holda ko'rib chiqish to'g'ri bo'lmaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ko'p hollarda huquqiy normalar bilan chegaralanib qolmoqda. Amaliyotda esa ushbu normalarning to'liq ishlashi har doim ham kuzatilmaydi. Masalan, ko'plab davlatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotda ishtirok etish huquqi qonunchilikda mustahkamlangan bo'lsa-da, madaniyat muassasalarining barchasi ham ularning ehtiyojlariga

moslashtirilmagan. Natijada huquqning mavjudligi va undan amalda foydalanish imkoniyati o'rtasida ma'lum tafovut yuzaga keladi. Bu esa muammoning faqat normativ-huquqiy emas, balki tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlariga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida o'rganilgan statistik ma'lumotlar nogironligi bo'lgan shaxslar ta'lim tizimida hamon yetarli darajada qamrab olinmayotganligini tasdiqladi. Oliy ta'limdagi ulushning pastligi kelgusida ularning mehnat bozoridagi imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda madaniy va ijtimoiy hayotdagi faolligini ham cheklaydi. Chunki ta'lim nafaqat bilim olish vositasi, balki shaxsning dunyoqarashi, madaniy saviyasi va ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi muhim omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, inklyuziv ta'limning rivojlanishi nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy huquqlarini ta'minlash bilan ham bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijalaridan yana bir muhim xulosa shuki, nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotdagi ishtirokiga to'sqinlik qilayotgan omillar ko'pincha bir-biri bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, transport tizimining moslashtirilmaganligi madaniyat muassasalariga borishni qiyinlashtirsa, axborotning mos formatlarda taqdim etilmasligi ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy imkoniyatlarning pastligi ham ayrim madaniy xizmatlardan foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, muammoni hal qilishda alohida yo'nalishlar bo'yicha emas, balki kompleks yondashuv asosida ish olib borish zarur.

Xorijiy davlatlar tajribasi ham mazkur fikrni tasdiqlaydi. Ayrim davlatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotdagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan samarali dasturlar va mexanizmlar joriy etilgan bo'lsa-da, ularning natijalari ko'proq infratuzilma, moliyaviy ta'minot va davlat siyosatining izchilligiga bog'liq ekanligi kuzatiladi. Ayniqsa, madaniyat muassasalarini universal dizayn tamoyillari asosida tashkil etish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish hamda maxsus xizmatlarni joriy etish ijobiy natijalar berayotganligi ko'rinadi. Biroq bunday tajribalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun faqat moddiy resurslarning o'zi yetarli emas. Jamiyatda nogironlikka nisbatan qarashlarning o'zgarishi va inklyuziv madaniyatning shakllanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlardan biri shundaki, nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy huquqlari ko'pincha ikkinchi darajali masala sifatida qabul qilinadi. Vaholanki, madaniy hayotda ishtirok etish insonning o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his etishida muhim o'rin tutadi. Teatr, muzey, kutubxona, tarixiy obidalar yoki boshqa madaniy maskanlardan foydalanish imkoniyati nafaqat hordiq chiqarish, balki shaxsning ma'naviy rivojlanishi, ijtimoiy integratsiyasi va o'z salohiyatini namoyon etishi uchun ham xizmat qiladi. Shu bois madaniy huquqlarni ta'minlash masalasi insonning asosiy huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida baholanishi lozim.

Keltirilgan ma'lumotlar va tahlillar nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy soha obyektlari va xizmatlaridan foydalanish huquqini ta'minlash bo'yicha hali ham sezilarli ishlar amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatadi. Bunda asosiy e'tibor faqat yangi huquqiy normalarni qabul

qilishga emas, balki mavjud kafolatlarning amaliy ijrosini kuchaytirish, infratuzilmani takomillashtirish, axborotning ochiqqligini ta'minlash hamda jamiyatda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Ana shundagina nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotda teng va faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

XULOSA

Nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy soha obyektlari va xizmatlaridan foydalanish huquqi insonning munosib hayot kechirishi, shaxs sifatida rivojlanishi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlovchi muhim huquqlardan biridir. Mazkur huquqning mazmuni faqat madaniy tadbirlarda qatnashish yoki madaniy obyektlardan foydalanish bilan cheklanmaydi. U shaxsning o'z madaniy ehtiyojlarini erkin ta'minlashi, ijodiy salohiyatini namoyon etishi, madaniy merosdan bahramand bo'lishi va madaniy jarayonlarning to'laqonli ishtirokchisiga aylanishini ham qamrab oladi. Tadqiqot natijasida nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy huquqlari alohida huquq sifatida emas, balki ta'lim olish, axborotdan foydalanish, erkin harakatlanish, mehnat qilish va ijtimoiy himoya huquqlari bilan o'zaro bog'liq holda amalga oshirilishi aniqlandi. Shu sababli ushbu huquqni ta'minlash masalasiga bee'tibor yondashish kutilgan natijani bermaydi. Aksincha, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotidagi barcha yo'nalishlarda teng ishtirok etishini ta'minlash zarur.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotdagi ishtiroki davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasigagina bog'liq emas. Ushbu sohadagi muvaffaqiyat, avvalo, inson huquqlariga asoslangan yondashuvning mavjudligi, inklyuziv siyosatning izchil amalga oshirilishi va nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlarini qarorlar qabul qilish jarayonlarida hisobga olish bilan belgilanadi. Shu ma'noda, nogironligi bo'lgan shaxslarni madaniy hayotning iste'molchisi sifatida emas, balki uning faol yaratuvchisi va ishtirokchisi sifatida e'tirof etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy huquqlarini ta'minlash masalasi kelgusida ham ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo'lib qolishini ko'rsatdi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda madaniy xizmatlarning yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Bu esa nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda, yangi huquqiy va tashkiliy vazifalarni ham yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy soha obyektlari va xizmatlaridan foydalanish huquqini ta'minlash zamonaviy huquqiy davlat va inklyuziv jamiyatning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Mazkur huquqning to'liq amalga oshirilishi nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy faolligini oshirishga, ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga hamda jamiyatda tenglik va inson qadr-qimmatini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida barqaror va adolatli jamiyatni shakllantirishning muhim sabablardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

RO'YXATI:

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

1948-yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi

1966-yil 16-dekabrda "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt

BMT tomonidan 2006-yilda qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son) <https://lex.uz/docs/-6445145>

O'zbekiston Respublikasi 15.10.2020 yildagi/641-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonuni.

ILMIY ADABIYOTLAR

Katsui, H. (2025). The linguistic and cultural rights of persons with disabilities in the context of Finnish disability services. *Scandinavian Journal of Disability Research*, 27(1), 373–386. <https://doi.org/10.16993/sjdr.1271>

Sayari, M. S. (2025). Cultural mediation and accessibility: Promoting inclusion of people with disabilities in cultural institutions – a case study of the Inclusive Museum Project. *European Journal of Special Education Research*, 11(7), <https://www.oapub.org/edu/index.php/ejse/article/view/6449>

A. Leahy, D.Ferri. (2022). Barriers and facilitators to cultural participation by people with disabilities: A narrative literature review. *Scandinavian Journal of Disability Research*, 24(1), 68–81. <https://doi.org/10.16993/sjdr.863>

Karrillo-Syerra, S.-M., Pinzon-Ochoa, M., Rangel-Piko, A.-N., Paris-Pineda,

O. M., Vaskes, M. F. G., Alvares Anaya, W. A., Rivera-Porras, D. (2025, February 14). Higher education students' perceptions of barriers to inclusion for students with disabilities. *Societies*, 15(2), 37. <https://doi.org/10.3390/soc15020037>

INTERNET SAYTLARI:

Centers for Disease Control and Prevention. (2025, April 3). Disability barriers to inclusion. <https://www.cdc.gov/disability inclusion/barriers/index.html>

Human Rights Watch. (2013, 11 sentyabr). Вездесущие преграды: Отсутствие доступности для людей с инвалидностью в России. <https://www.hrw.org/ru/report/2013/09/11/256462>